

Ismailov Zokirbek Qadambayevich.

Urganch Davlat Universiteti xuzuridagi Xiva qishloq xo'jaligi texnikumi direktori.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish asosida iqtisodiy samaradorlikga erishish bo'yicha ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: agro iqtisodiyot, raqamlashtirish siyosati, islohat, iqtisodiyot elementlari, texnologiya.

Kirish

Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti barcha sohada jadal rivojlanib bormoqda. Shuningdek, agrar sohada ham keng ko'lamda islohatlar olib borilmoqda. Aytishimiz mumkinki, iqtisodiyotni barcha jabhalarida raqamlashtirish faoliyati olib borish o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqot faoliyatimdan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi sohasida raqamlashtirish jarayonini olib borish uchun davlat tarafidan keng e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha davlat islohatlarini tahlil qilar ekanmiz, quyidagilarni asoslashimiz mumkindir:

2021-yil 28-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligida agrosanoat majmuasi va Ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida konferensiya-taqdimot bo'lib o'tdi. Tadbirda qishloq xo'jaligi tarmog'ini jadal raqamlashtirish bo'yicha dasturlar doirasida yaratilgan 10 ta axborot tizimlari va platformalari taqdim etildi. Anjumanni qishloq xo'jaligi vazirining agrosanoat majmuini raqamlashtirish bo'yicha vazirlik hodimlari ishtirok etishdi1 .

Qishloq xo'jaligi qo'shimcha imkoniyatlarga boy soha. Bozorlarimiz fayzu barakasi, hayotimiz farovonligi ko'p jihatdan unga bog'liq. Zero, yurtimiz zamini saxovatli. Shu bois keyingi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish va uni bozor talablariga moslashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, davlat xarid narxlarining qariyb 3 barobar oshirilishi paxtachilik va g'allachilikni daromad keltiradigan tarmoqqa aylantirdi. Qolaversa, paxtachilikda mutlaqo yangicha ish tutumiga, ya'ni klaster tizimiga o'tilgani mehnatga munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ishni samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyati yuzaga keldi. Shuningdek, paxta maydonlarida sug'orishning tejamkor usullari ttabiq etildi. Shu yilning o'zida 25 ming hektar paxta maydonida suv tejovchi yangi sug'orish tizimi joriy qilinishi natijasida o'tgan yilda giga nisbatan uch barobar ko'p hosil olish kutilayotgani, foydalanishdan

chiqqan 1 million 100 ming getkar yer maydoni qayta foydalanishga kiritilayotgani shunday sa'y-harakatlar samarasidir.

Yurtboshimizning “Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida2 ”gi Farmoni bilan agrosanoatni rivojlantirishga qaratilgan bir necha o'nlab loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Shu asosda raqamlashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifa va topshiriqlarni jadal suratlarda olib borishda yetakchi xorijiy tajribani o'rganish, jumladan, Yevropa Ittifoqi va Jahon Bankining maslahat va moliyaviy qo'llab-quvvatlashidan, eng yaxshi texnik yechimlardan foydalanilmoqda. Ma'lumki, ohirgi 15 yil ichida O'zbekiston aholisi 27 milliondan deyarli 40 millionga yetdi, har bir kishi uchun ajratilgan yer maydoni esa 23 sotixdan 16 sotixga kamaydi.

Takidlash lozimki, 1 getkar yerni sug'orish uchun mo'ljallangan suv resurslari 3048 m³ dan 2889 m³ ga qisqardi. Mazkur muammoning yechimini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan Farmoni3 qabul qilindi. Ushbu farmonda yerning aniq hisobini yuritish va yer maydonlarining meliorativ holati haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalalari belgilangan.

O'zbekiston agrosanoat majmuasi uchun mustaqillik davri burilish nuqtalaridan biri bo'ldi, qishloq xo'jaligi sohani raqamlashtirish masalalarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmay qoldi. Shu paytdan boshlab agrosanoat bozorining yirik ishtirokchilari davlatdan mustaqil ravishda o'zlarining axborot tuzilmalarini yaratishni boshladilar. Bu davlatning yirik agrobiznesga ta'sirini yo'qotishiga, agrosanoat majmuasini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini pasayishiga va kichik ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini kengaytirish imkoniyatlarini yo'qotishiga olib keldi. Hozirgi bosqichda raqamlashtirish alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlatlar siyosatiga ta'sir ko'rsatishning kuchli usullaridan biriga aylandi. Yurtimizda iqtisodiyot va uning tarmoqlarini raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Bunday tadbirlarning maqsadi zamonaviy texnologiyalar tarmoqlari va tizimlarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli masalalar bo'yicha tegishli ma'lumotlar bazalari bilan yagona axborot makonini yaratishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi hmam salmoqli o'ren egallaydi. Bu borada qishloq xo'jaligi boshqaruv xodimlariga qo'shimcha imtiyozlar va yo'nalishlar belgilab berilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga

mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi." 1 Shuningdek, Qishloq xo'jaligi qo'shimcha imkoniyatlarga boy soha. Shu sababli, keyingi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish va uni bozor talablariga moslashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumaladan, davlat xarid narxlarining qariyb 3 barobar oshirilishi paxtachilik va g'allachilikni daromad keltiradigan tarmoqqa aylantirdi. Qolaversa, paxtachilikda mutlaqo yangicha ish tutumiga, ya'ni klaster tizimiga o'tilgani mehnatga munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ishni samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyati yuzaga keldi. Shuningdek, paxta maydonlarida sug'orishning tejamkor usullari tatbiq etildi. Shu yilning o'zida 25 ming hektar paxta maydonida suv tejovchi yangi sug'orish tizimi joriy qilinishi natijasida o'tgan yildagiga nisbatan uch barobar ko'p hosil olish kutilayotgani, foydalanishdan chiqqan 1 million 100 ming hektar yer maydoni qayta foydalanishga qaytariladi.

Bu borada quyidagi vazifalar belgilangan va ularning ijorisini boshqaruv xodimlari nazorat qilishlari kerak. Ular:

- qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish;
- suvdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish;

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi faol qo'llab-quvvatlanadigan davlatlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun boshqaruv xodimlariga hma keng imkoniyatlar berilmoqda. O'z navbatida rahbat xodimlar zimmasida mas'uliyat va vazifalar ham mavjud. Agrar sohasiga davlat tomonidan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 2-3 barobar ko'p mablag' ajratilmoqda. Shuning uchun ham 2025-yilga borib, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi faqat bozor mexanizmlari asosida tartibga solinadi. Tan olish kerak, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish borasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Birinchidan, bozorni o'rganish va bozor topish borasida muammolar bor. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida eng katta e'tibor bozor mexanizmlariga qaratilgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, shuningdek, qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish juda muhim va samarali natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining pq- 4575 sonli qarori, 28.01.2020y.

2. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<https://lex.uz/docs/-4714632>
3. [https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/yangi-ozbekistonning-taraqqiyot solnomasi](https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-solnomasi)
4. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-qishloq-khozhaligini-rivozhlantirish-strategiyasi-iqtisodiyotimiz-drajveri-khalqimiz-turmush-farovonligini-taminlovchi-yangi-bosqichdir>
5. [https://cityeconomy.uz/uz/news/matbuot_uchun/tadbirlar/ozbekiston-qozogiston sanoat-va-qishloq-xojaligi-mahsulotlari-korgazmasi-davom-etmoqda](https://cityeconomy.uz/uz/news/matbuot_uchun/tadbirlar/ozbekiston-qozogiston-sanoat-va-qishloq-xojaligi-mahsulotlari-korgazmasi-davom-etmoqda)
6. President.uz "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda." <https://president.uz/oz/lists/view/4547>